



## OILA TIPIDAGI BOLALAR UYI TARBİYALANUVCHILARINING IJTIMOIYLASHUVIDA PSIXOLOGIK OMILLARNING AHAMIYATI

To'raqulov Laziz Tirkashevich

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

**Annotasiya:** Maqolada oila tipidagi bolalar uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvida psixologik omillarning ahamiyati haqida soʻz yuritilgan boʻlib, unda oila tipidagi bolalar uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvi masalalari bugungi kunning eng dolzarb mavzularidan biri boʻlib, bolalarning bir qator shaxs xususiyatlarini shakllantirish imkoniyatini yaratilishi yoritilgan.

**Kalit soʻzlar:** oila tipi, bolalar uyi tarbiyalanuvchilari, ijtimoiylashuv, shaxs xususiyatlari, imkoniyat.

**Аннотация:** В статье говорится о значении психологических факторов в социализации воспитанников детских домов семейного типа, в которой вопросы социализации воспитанников детских домов семейного типа являются одной из самых актуальных тем современности, и созданию выделена возможность формирования ряда личностных качеств детей.

**Ключевые слова:** тип семьи, воспитанники детского дома, социализация, личностные особенности, возможности.

Hozirgi kunda jahonda ta'lim jarayonidagi mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvi masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Darhaqiqat, oila tipidagi bolalar uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvi masalalari bugungi kunning eng dolzarb mavzularidan biri boʻlib, bolalarning bir qator shaxs xususiyatlarini shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Bunda esa oila institutining o'рни va ahamiyati muhim hisoblanadi. Bugungi kunda dunyoning rivojlangan to'rt qit'a mamlakatlarida: AQSH oilalarining psixologik qiyofasi; Yevropa davlatlaridan Buyuk Britaniya, Germaniya, Norvegiya, Rossiya, Finlyandiya, Frantsiya, Shvetsiya mamlakatlarining oila munosabatlari; Afrika qit'asi Misr, Nigeriya, Efiopiya, Sudan davlatlarining oila bo'yicha qadriyatlarini masalalari; Osiyo qit'asida yashaydigan turli millat oilalarining o'ziga xos etnopsixologik xususiyatlari, Germaniyaning oila instituti farovonlik davlati ekanligi; bu davlatdagi shaxslararo munosabatlarning bir asosiy ko'rinishi sifatida oilada qaynona-kelin munosabatlarning boshqa mamlakatlardagi holatidan farq qilishi haqidagi ma'lumotlar e'tiborga molik.

O'zbekistonning kelajagi bo'lmish yosh avladni jismoniy sog'lom, aqliy yetuk, axloqiy pok, ma'naviy boy, insofli diyonatli bo'lishini ta'minlash g'oyat murakkab va mas'uliyatli ish hisoblanadi. Respublikada ma'lum miqdor bolalarning tarbiyasi oilada ota-ona bag'rida emas balki, bolalar uylarida aniqrog'i yetimxonalarda kechmoqda. Yetimlik tarixiy fakt, ota-onalardan juda erta judo bo'lish, agar boquvchi bo'lmasa, biror bir insonparvar oila yoki davlat muassasalarida tarbiyalanish ma'lum bir bolalar taqdirida ko'rinadi. Hozirgi kunda Respublikamizda 2,7 mingdan ortiq bola "Oila tipidagi bolalar uylari"da Davlat ta'minoti hisobidan ta'lim – tarbiya olmoqda. Bu maskanlardagi ta'lim – tarbiya jarayoni



umumta'lim maktablaridan farq qiladi. mehribonlik uylaridagi tarbiyalanayotgan bolalar psixologiyasi xususiyatlarini hisobga olgan holda ushbu muassasalardagi shaxslararo munosabatlarni qaror toptirish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasida samimiy munosabatni keltirib chiqarish, "Bolalar xuquqi va manfaatini himoya qilish" Konventsiyasi talablari asosida ishni tashkil qilishni davr taqozo etmoqda.

Bugungi kunda dunyo miqyosida ota-ona mehridan mahrum bo'layotgan bolalar soni kundan kunga ortib bormoqda, dunyo bo'yicha statistik ma'lumotlarga ko'ra bunday bolalar soni 1 milliondan ortib ketgan. Tarixiy ma'lumotlarga nazar tashlagan holda mushohada qilinsa, ushbu holatlarni ko'rish mumkin. Dunyoda sodir bo'lgan urushlar davrida qarovsiz qolgan bolalar muammosi, yetim bo'lib qolgan bolalar tarbiyasi asosiy muammo sifatida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan holat sifatida ehtirol etilgan.

Jamiyatda yetim va qarovsiz qolayotgan bolalar sonining ko'payishiga ko'plab ob'yektiv va sub'yektiv sabablar yetarlicha topiladi, bunday holat milliy qadriyatlarining, jamiyada axloqiy me'yorlarning buzilishi, ichkilikbozlik, giyohvandlik, ishsizlik kabi illatlar natijasida yuzaga kelmoqda. Shu sababli ham oila tipidagi bolalar uyida tarbiyalanayotgan 60-80 foiz bolalarning ota-onasi bor, lekin yuqorida keltirilgan sabablar tufayli ular bolalarini oila tipidagi bolalar uyiga topshirishga mahkum qilingan.

Mazkur muammo borasida dunyo bo'yicha pedagog va psixolog olimlar tomonidan keng miqyosda tadqiqot ishlari olib borilsada, ijobiy ilmiy natijalarga erisha olmayaptilar, buni sababi esa tadqiqot natijalari asosida to'plangan ma'lumotlarda tafovut mavjud, ilmiy tadqiqotlarni olib borishda turli nazariyalarga tayangan, tadqiqot ishlarida qo'llanilgan metodikalarning xilma-xilligi esa olingan natijalarni o'zaro taqqoslash imkonini pasaytirishi bo'lsa olingan natijalarni qiyosiy tahlil qilishda millat, urf-odatlar, tarbiya va etnik xususiyatlar kabi omillar inobatga olinmagan. Shu bilan birgalikda, olib borilgan tadqiqotlarning pedagogik nazariya yo'nalishida ekanligini ham ta'kidlash joiz.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, yetim va qarovsiz bolalar bilan oilada tarbiyalanayotgan bolalar orasida katta tafovut mavjud bo'lib, mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bolalarning xarakterida tajovuzkorlik (agressiya) xislatini ko'rishimiz mumkin, bu xislatni keltirib chiqaruvchi sabab esa, bizni nazarimizda bolalarga yetishmaydigan ota-ona mehri va ular tarbiyasi hisoblanadi.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ota-ona mehri munosabati masalasini ilmiy tahlil qilgan angliyalik psixolog R.Bernis quyidagi fikrlarni bildiradi: "...salbiy men kontseptsiyasining shakllanishi va tajavuzkorlik bolaning ota-onalarga va ota-ona rolini bajaruvchi shaxslarga nisbatan qupolligi natijasi hisoblanadi. Bolada hech kimga qo'shilmaslik, odamovilik, tundlik, yolg'izlik hissi namoyon bo'la boshlaydi. Mazkur hisslar esa bolada salbiy men kontseptsiyasini keltirib chiqaradi".

Mehribonlik uyi o'smir va o'spirinlik yoshidagi bolalar uchun oxirgi boshpana hisoblanadi, chunki keyin ular uchun mustaqil hayot boshlanadi, ular ijtimoiy hayotga, jamiyatga qo'shiladilar. Mustaqil hayot haqida tasavvurga ega bo'lmagan bolalarning ijtimoiylashuvi og'ir kechishi mumkin, ular hayotda qiynalishi, adashishlari, xato qilishlari mumkin, bu esa ularning kelajagiga salbiy ta'sir ko'rsatish ehtimoli yuqori bo'ladi.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining tor ma'nodagi faoliyat motivi nafaqat hayotiy tajribaning yetishmasligi, balki shaxslararo munosabatning yetarli emasligi, ayniqsa katta



yoshdagi odamlar bilan munosabatni chegaralanganligi bilan ham bog'liq bo'ladi. Yaxshi bilamizki, maktabgacha yoshda va kichik maktab yoshidagi bolalar psixikasini rivojlanishida katta yoshdagi odamlarning (ota-ona, tarbiyachi va o'qituvchilar) o'rni va roli katta ahamiyat kasb etadi. Mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bolalarda katta yoshdagi bolalar bilan muloqot qilish ehtiyoji esa qondirilmaydi, bu holat esa boladagi ehtiyojni kuchli namoyon bo'lishiga olib keladi, bu esa bolalarning tengdoshlari, tarbiyachilar bilan muosabatida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Bu holat bahsli munozaralarda, qiziqishlar to'qnashuvida, kattalarning tanbehida, tahqiqlashda, tengdoshlari bilan tortishuvlarda, ayblashlarida yaqqol yuzaga chiqadi. Bunday vaziyatlarda bolaning boshqalarni ayblash, o'z aybini tan olmaslik, muammoli vaziyatlardan chiqma olmaslik kabi holatlarda uning tajovuzkorlik xususiyati ko'zga tashlanadi.

Ko'plab ilmiy tadqiqotlarda qayd qilinishicha, mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalar tarbiyachilari va katta yoshdagi odamlarga yoqish uchun tartib-intizomga rioya qilishga, odobli bo'lib ko'rinishga harakat qiladilar. Chunki, oilada tarbiyalanayotgan bolalar o'zlarining xarakteri qanday bo'lishidan qat'iy nazar, sevimli ekanligini inobatga olganda, oila tipidagi bolalar uyida tarbiyalanayotgan bolalar katta yoshdagi odamlarning ijobiy munosabat bildirishlari uchun o'zlarini odobli, axloqli, tartibli qilib ko'rsatishga harakat qiladilar, buni sababi esa ular kattalardan o'zlarini farzand qilib olishidan umid qilishdir. Bu holat esa ularning psixik rivojlanishi jarayonining o'ziga xos xususiyatidan dalolat beradi, bu ularni psixologik rivojlanishida aks etadi va bolalar xarakteridagi ichki tushuncha, tasavvur, fikrlash, idroki va axloqiy javobgarlik kabi xususiyatlarning tashqi vaziyatlar bilan bog'liqligi bilan xarakterlanadi.

Demak, aytish joizki, shaxsiy hayotiy pozitsiyaga ega bo'lish o'zini anglash, ichki va tashqi imkoniyatlarini belgilay olish oiladagi tarbiyaviy muhitga va o'zaro munosabatlarga, oilada yaratiladigan shart – sharoitlarga bog'liq bo'lishini ta'kidlash lozim. Oiladagi shart – sharoitlar, oilaviy muhit va o'zaro munosabatlar past darajada shakllangan holatda shaxsiy hayotni anglash ham past darajada bo'ladi degan fikr kelib chiqadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. N.M.Egamberdiyeva Ijtimoiy pedagogika darslik. «Toshkent»2009,
2. Бернс Р. Развитие Я - концепции и воспитания. М. 1986 с. 159
3. Прихожан А.М. Исследование психического развития младших школьников воспитанников в закрытом детском учреждении. М. Педагогика 1982. с. 77-111.
4. Xaydarov Ismoil Olloqulovish.psi.nomzodlik dissertatsiyasi. T -1996 y.